



Gumanistik psixologiyaning asosiy prinsiplari

Qirg'izova Nilufar Olimjanovna

Namangan viloyati Uychi tuman 18 - maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada gumanistik psixologiyaning mazmun mohiyatini ochib beruvchi fikr, mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologik yo'nalish, gumanistik psixologiya.

Gumanistik psixologiya inson tabiatini tushuntirishda o'zining yondashuvi bilan boshqa psixologiya fanidagi yo'nalishlardan farq qiladi. Bu borada mazkur yo'nalishning vakillari sifatida G.Olportning shaxs qirralari, A.Maslouning shaxsnining o'zini o'zi kamol toptirish, K.Rodjersning inderiktiv psixoterapiyasi, R.Meyning shaxsning hayot yo'li haqidagi g'oyalarini e'tirof etish mumkin. Mazkur yo'nalishning har bir nazariyasi o'zining ilmiy tushunchasi, insonning ichki olamini tushunishga yo'naltirilgan tadqiqot usullari va psixoterapevtik yondashuvlaridan iborat. Shunga ko'ra gumanistik psixologiyaning umumiy prinsiplari quyidagicha mavjud:

- Inson doimo yangi maqsadga intiluvchi, o'zini o'zi kamol toptirish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ifodalovchi taraqqiyot prinsipi.
- Inson o'z tabiatiga ko'ra erkin va mehribonlikni ifodalovchi insonparavarlik prinsipi.
- Maqsadli determinizm prinsipi. Shaxsning intilishlari kelajakka yo'naltirilganligi bilan uning maqsad, qadriyatlari va kutilmalarini ifodalovchi sababiy determinizmni tasdiqlash prinsipi.



- Inson mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi mavjudod sifatida o'zining sub'ekt sifatida namoyon qilishini ifodalovchi faollik prinsipi.
- Shaxsni alohida fragmentlar bo'yicha o'rganib bo'lmasligi, balki uni yaxlit o'rganishga undovchi shaxsni noeksperimental tadqiq etish prinsipi.
- Gumanistik psixologiyada tadqiqot maqsadi va ob'ektining mosligi insonni sog'lom, o'zini o'zi ro'yobga chiqarib borishini ta'minlovchi me'yorda va to'laqonli faoliyat olib boruvchi shaxsni o'rganish vazifasini ifodalovchi reprezentativlik prinsipi.

2. G.Olportning shaxs nazariyasi. Taniqli AQSh psixologi G.Olportning fikricha, shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozisiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi chamamda. Shaxsning uni muhim xususiyatli jihatlaridan biri bu uning individualligidir yani yakka hokimligidir.

Uning ko'rsatilishicha nuqtai nazardan dispozisional yaqinlashish bu ikkita bir xil inson bo'linmaydi deyiladi. Har bir inson o'zini har xil holatlari bilan o'zgachadir. Bunga Olport o'zini nazariyasini xarakterni ya'ni umumiy analizini ko'rsatadi. Har bir shaxsni bir-biridan farqlaydigan harakteri mavjud. Shaxsni harakteri nima Olport xarakterni xuddi nitropsixik jarayonday belgilaydi, unda hajmi ekspressiv xulq-atvoridir.

Masalan, agarda insonlar ishlarini xotirjam qilsalar, har xil vaziyatlarda o'zlarini erkin tutadilar. Olportning ta'kidlashicha inson xulq- atvori uning qilayotgan ishida o'zini boshqara olishidir.

Ijtimoiy turmushda xayotda faoliyat ko'rsatayotgan har bir shaxs o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning harakteri asosida boshqa insonlardan farq qiladi harakter xususiyatlarida o'z ifodasini topadi.



Xarakter tushunchasi yunoncha soʻz boʻlib harakter, bosilgan tamgʻa yoki qiyofa, xislat degan maʼnoni anglatadi. Lekin u psixologiyada torroq mazmunda qoʻllaniladi. Xuddi shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter xislati tarkibiga boʻlinadi chunonchi aqlning tirgakligi topqirligi xotiraning barqarorligi koʻrishning oʻtkirligi idrokning tanlovchanligi singari individual psixologik xususiyatlar bunga yorqin misoldir. Shaxs xarakterining xususiyati roʻyobga chiqadigan har qanday vaziyat, sharoit, xolat, muxit, xissiy kichinmalarining individualligi, oʻziga xos xislati uning munosabatlariga bogʻliq. Masalan; Mestir Makkarish taʼkidlashi mumkin yadroviy urushni ruslar bilan yozishi qasos xatini gazetaga qarata nimalar haqida yoki uni qanot politklarga ovoz berishi mumkin. Bunaqangi misol shaxs harakatlarida koʻrish mumkin. Buni Olport oʻzining nazariyalarida yoritib bergan.

Shaxs motivasiyasi: Olportning fikricha uning motivlari aftanomligi darajasiga va uning biologik extiyojlaridan xolos boʻlishga bogʻliq. Shaxslarning ishni mexanizmi sifatida Olport xatti -xarakatlarini koʻrsatdi Xarakatda shunchaki xarakter harakati emas balki xarakat motiv, xarakat qiziqishdir. Olport belgilagan xarakat motiv xisoblanadi. U kattalarning motivlari kichkina bolalarnikidan keskin farq qilishini eʼtirof etish bilan birga ularning biologik xolatmasligi, shuningdek, ular ruhiy maʼnaviy holat ham emasligini takidlagan. Olportning fikricha inson xarakatining motivi haqida degan tushunchaga asoslanadigan boʻlsak quyidagicha savol paydo boʻladi. U qaerdan paydo boʻladi degan savol bizga kishi tabiiy bir tomondan u harakat motiv biologik faktor emas desa, ikkinchi tomondan har bir inson maʼlum harakatlar toʻplami bilan dunyoga keladi. 1937 yili G.Olport sosial intellektni odamlarni toʻgʻri baholay bilish, ularning hulqini toʻgʻri bashorat qilish va shundan kelib chiqqan xolda ular bilan munosabatga kirishish bu qobiliyati deb tavsiflaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sheynov V. "Psixologiya i etika delovogo kontakta". M., Amalfeya, 1997.
2. Vecher L. Sekrety delovogo obsheniya. Minsk, 1996.
3. Kornilova T. Vvedenie v psixologicheskiy eksperiment. M., 1997.
4. CHaldini R. Psixologiya vliyaniya. M., 2000.
5. Filipp Zimbardo, Maykl Lyayppe. Sotsialnoe vliyanie.- SPb, 2000.-448 s.